RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR OLIY TA'LIM TIZIMIDA TARIXIY YODGORLIKLARNI MEDIATEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'RGANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qoriyev Abdumalik Ubaydullayevich
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi,
Elektron pochta: Aqoriyev88@gmail.com, tel raqam: +998999744436
ORCID: 0009-0008-6308-2871

Annotatsiya. *Mazkur maqolada AQSH, Buyuk Britaniya va Italiya kabi rivojlangan mamlakatlardagi oliy ta'lim tizimida tarixiy yodgorliklarni mediatexnologiyalar yordamida o'rganishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlarning oliy ta'lim tajribasi mediatexnologiyalar asosida tarixiy-me'moriy yodgorliklarni o'rganishda talabalarning vizual idroki, fazoviy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi haqida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: Tarixiy yodgorliklar, *3D modellashtirish, GIS texnologiyalari, StoryMaps, Sketchfab, multidisipliner, konsentratsiya, raqamli tarix, interpretatsiya, "Percorsi abilitanti", "Teaching history", "Didattica della Storia", "Didattica del Patrimonio", "Public and digital history".*

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi zamonaviy ta'lim tizimida yangicha yondashuvlarni shakllantirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va mediatexnologiyalarni qo'llash dolzarb masalalardan biriga aylangan. Tarixiy-me'moriy yodgorliklar, madaniy me'ros va osori-atiqalar bugungi taraqqiyotning moddiy va madaniy guvohi sifatida talabalarda tarixiy tafakkur, tahliliy va tanqidiy fikrlash, keng dunyoqarash

imrconf.com

hamda madaniy merosga hurmat tuyg‘usini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi[1].

Rivojlangan davlatlarning oliy ta’lim tizimida tarixiy yodgorliklarni o‘rganish jarayonida virtual[1] muzeylar, uch o‘lchamli modellashtirish (3D)[2], geografik axborot tizimlari (GIS)[3], StoryMaps[4], sketchfab[5] kabi raqamli platformalardan keng foydalanilmoqda. Bu esa tarixiy obyektlarni fazoviy[6], vizual[7] va interaktiv shaklda o‘rganish imkonini yaratib, talabalarning ilmiy izlanishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi[3].

Tarixiy me’moriy yodgorliklarni o‘qitishda va talabalar tomonidan o‘rganishda mediatexnologiyalardan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribalarni ikki yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin: birinchi yo‘nalishda, xorijiy davlatlardagi pedagogik oliy o‘quv yurtlari va ularda tarixchi pedagoglar tayyorlanishi, tarix o‘qitish metodikasi hamda me’moriy yodgorliklarni o‘qitishda qo‘llanilayotgan innovatsion va raqamli texnologiyalarni o‘rganib chiqish; ikkinchi yo‘nalishda, ushbu mavzu bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni, dissertatsiya va maqolalar nashr etgan olimlarni ilmiy ishlarini tahlil qilish[2].

Ushbu maqolada birinchi yo‘nalish bo‘yicha izlanishlar amalga oshirilib, AQSH, Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlardagi oliy o‘quv yurtlarida amalga oshirib kelinayotgan mediatexnologiyalar asosida tarixiy-me’moriy yodgorliklarni o‘rganishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilishga urinib ko‘riladi.

---

[1] **Virtual** – bu **kompyuter yoki raqamli texnologiyalar yordamida sun’iy ravishda yaratilgan muhit yoki obyekt**.

[2] Uch o‘lchamli modellashtirish (3D) — bu obyekt yoki binoning uzunlik, kenglik va balandlik o‘lchamlari bilan raqamli shaklda yaratilgan virtual modelidir. Ya’ni real obyektning kompyuterda hajmli nusxasini yaratish.

[3] **GIS** – bu **xarita va geografik ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, tahlil qilish va ko‘rsatish** uchun mo‘ljallangan raqamli tizimdir.

[4] **StoryMaps** – xarita, matn, rasm, video va boshqa raqamli manbalarni birlashtirib, interaktiv hikoya yaratish imkonini beradigan raqamli platforma. https://doc.arcgis.com/en/arcgis-storymaps/gallery/

[5] **Sketchfab** – bu internet orqali **3D (uch o‘lchamli) modellarni yuklash, ko‘rish va ulashish** uchun mo‘ljallangan onlayn platformadir. https://sketchfab.com

[6] **Fazoviy** – bu **makon, joylashuv va hudud bilan bog‘liq** degan ma’noni bildiradi.

[7] **Vizual** – bu **ko‘z bilan ko‘rish orqali qabul qilinadigan,** ya’ni tasvir, rasm yoki grafik ko‘rinish bilan bog‘liq tushuncha.

imrconf.com

2000-yillardan beri tarixiy-me'moriy obidalarni o'qitish va tadqiq etishda mediatexnologiyalardan foydalanish masalasi xalqaro miqyosda keng ilmiy muhokama qilinmoqda. virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR)[8], 3D, GIS, onlayn kollaborativ platformalar, video-audio kontentlar hamda virtual muzeylar ta'lim jarayonida keng qo'llanila boshlandi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, mediatexnologiyalar tarixiy-me'moriy obidalarni o'qitishda nafaqat ko'rgazmali vosita, balki faol tadqiqot muhiti bo'lib xizmat qiladi, talabalarda fazoviy, vizual va tahliliy ko'nikmalarni birlashtiradi, xalqaro standartlar asosida madaniy merosni asrash va ommalashtirishni ta'minlaydi.

Pedagogika institutlarida me'moriy obidalar mustaqil fan nomi sifatida kamroq uchrasa ham, "Muzey va madaniy yodgorliklar ta'limi", "Tarixiy obidalarni ilmiy talqin qilish", "Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi" bloklari orqali madaniy merosga oid dars berish metodlari o'rgatiladi. Bunda amaliyot, stajirovka, amaliy kuzatuv asosidagi tadqiqot, sahnaga chiqarish, kolleksiya bilan ishlash kabilar inobatga olinadi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ko'plab shtatlarda pedagogikaga ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlari mavjud. Ularning ko'pchiligi "College of Education", "School of Education" yoki "Teachers College"[9] nomlari bilan tanilgan. Har bir shtatda deyarli bitta yoki bir nechta universitet tarkibida pedagogik fakultetlar mavjud. AQShdagi pedagogikaga ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlariga eng qadimgi va nufuzli pedagogika institutlaridan New Yorkdagi Kolumbiya Universiteti, Massachusetsdagi "Garvard universiteti pedagogika yo'nalishi bo'yicha magistratura va doktorantura maktabi",

[8] **Kengaytirilgan reallik** (AR - Augmented Reality) — bu real (haqiqiy) muhitga raqamli elementlar (3D obyektlar, matn, video, animatsiya yoki grafikalar)ni qo'shib ko'rsatadigan texnologiyadir. AR real dunyoni butunlay almashtirmaydi, balki unga qo'shimcha virtual ma'lumot qo'shadi. Masalan, telefon kamerasi orqali bino ustida tarixiy ma'lumot paydo bo'lishi, yodgorlik yonida 3D rekonstruksiya ko'rinishi, xarita ustida interaktiv obyektlar chiqishi AR tomonidan qilinadigan imkoniyatlar hisoblanadi.

[9] "College of Education" - "Pedagogika fakul'teti, "School of Education" - "Pedagogika oliy maktabi", "Teachers College" - "Pedagogika kolleji" (Tarjima muallifniki)

imrconf.com

Kaliforniyadagi “Stenford universiteti pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha magistratura va doktorantura maktabi” kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

AQShda pedagogikaga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalari nazariy-pedagogik bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq amaliyot, maktab va muzeylarga ko‘chma va virtual amaliyotga ustuvorlik beradi. Ko‘p shtatlarda o‘qituvchi bo‘lish uchun nafaqat diplom, balki maxsus davlat imtihonidan o‘tish kerak bo‘ladi. Bunda bo‘lajak pedagog mediatexnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari bo‘yicha sinovdan ham o‘tadi.

Pedagogika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurti va kollejlarning dasturlarida “tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalar”ga oid alohida fan yoki modular yo‘q, lekin ular san’at tarixi, arxitektura tarixi, madaniy meros, muqaddas obidalarni saqlash va multidisipliner[10] kurslari ichidan joy oladi.

Garvardda "Me’moriy tasavvur” kursida talabalar arxitekturaviy yodgorliklarni qanday qilib madaniy ifodaga aylantirilishi va texnologik ko‘nikmalarga erishish ekanligini o‘rganadi. Kurs jarayonida tarixiy binolar tahlil qilinadi, ularning 3D modeli yaratiladi va rasmlari chiziladi.

Kolumbiya universitetining o‘qituvchilar tayyorlaydigan kollejidagi ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha kurslarda tarix va ijtimoiy fanlar metodikasi o‘rgatiladi. San’at ta’limi va san’at tarixi kursi tarkibida muzey ta’limi yo‘nalishi bor. Ijtimoiy fanlarni o‘qitish yo‘nalishida tayyorlangan o‘quv dasturlari muzey va madaniy merosga oid jamoat muassasalarini amaliy o‘quv muhiti sifatida ko‘zda tutadi. Bu borada tadqiqot amaliyotini o‘tkazgan olimlardan pedagogika bo‘yicha phd. Baron Montisello pedagog Mount Vernon bilan birgalikda tarixiy obidalar negizida tashkil etilgan kasbiy rivojlanish dasturi uchun baholash mezonlarini ishlab chiqgan. Bu talabalarni tarixiy joylarda o‘qitishga tayyorlashning aniq modellaridan biri edi.

[10] Multidisipliner bir nechta fanlarni birlashtirib biror muammoni o‘rganish.

imrconf.com

Pedagogika institutlarida esa tarixiy me'moriy obidalar, madaniy meros va virtual muzeylarga oid o'quv kurslari, konsentratsiyalar[11] hamda amaliyotlar mavjud. Ular ko'proq muzey pedagogikasi, ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi, tarixiy joylarni talqin qilish nomlari ostida beriladi va virtual tadqiqot, stajirovka, obyektga asoslangan ta'lim, o'quv dasturlarini loyihalash kabi shakllarda amalga oshiriladi[4].

Amerikadagi Jorj Meyson universiteti professorlari Daniel J. Cohen va Roy Rosenzveig tomonidan 2006-yilda tayyorlangan "Raqamli tarix: o'tmishni internet tarmog'ida to'plash, saqlash va taqdim etish" bo'yicha qo'llanma tarix fani o'qituvchilari, muzey va arxiv xodimlari, o'quvchi hamda talabalarga veb sahifada tarixiy maxsulot yaratish ya'ni to'plash, raqamlashtirish, saqlash, talqin va taqdim etish uchun amaliy ko'rsatmalar beradi[5].

Buyuk Britaniyani juda ko'plab olimlar va tadqiqotchilar, bir qator fanlar va sohalarni rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratgan hudud hisoblanadi. Shuningdek ushbu hududda milodning boshlariga borib taqaladigan yodgorliklar va inshootlar juda ko'plab topiladi.

Shu tufayli ham Britaniya universitet va institutlarida tarix fani bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlaydigan fakultetlar va oliy ta'lim yo'nalishlari faoliyat olib bormoqda. Ular "Tarix ta'limi", "Ta'limda tarixni o'qitish", "Tarix fani bo'yicha magistratura darajasidagi pedagogik malaka sertifikati" yoki "O'rta maktablarda tarix o'qitish" kabi nomlar bilan yuritiladi.

Birlashgan Qirollikdagi pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud maktablarda tarix fanini o'qitish bo'yicha dasturlarda nafaqat nazariy bilimlar, balki mediatexnologiyalar asosida tashkil etiladigan amaliy ko'nikmalar muhim talab sifatida belgilangan. Shuningdek, universitetlarda tarix ta'limi muzeyshunoslik va madaniy yodgorlikda o'qitish kurslariga bog'langan. Ba'zan oliygoh bitiruvchi kurslari va maktab o'qituvchilari uchun qisqa kurslar va kasbiy rivojlanish dasturlari ham o'tkaziladi. Ularda ham mashg'ulotlarga

[11] **Konsentratsiyalar** - bu obidalar, eksponatlar va yodgorliklarni bir joyda to'planishi

imrconf.com

qo‘yilgan asosiy talablardan biri innovatsion texnologiyalar va raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Buning uchun talabalarga qiziqarli o‘yinlar, topshiriqlar, rasm va videolarni tahlil qilish kabi mediatexnologiya asosidagi vazifalardan keng foydalaniladi. Buyuk Britaniyada tarix o‘qituvchilarini tayyorlaydigan fakultetlarda “tarixiy yodgorliklar, qasrlar, tarixiy shaharlar va binolar” bilan ishlash alohida “Tarixiy muhit: muzey pedagogikasi va madaniy meros ta’limi” bloklari orqali kiritilgan.

Angliyaning Kembrij universitetidagi Pedagogika fakultetida “Tarix fani bo‘yicha magistratura darajasidagi pedagogik malaka sertifikati” dasturi mavjud bo‘lib, unda talabalarga tarix o‘qitish metodikasi, manbalar va yodgorliklar bilan ishlash, tarix darslarini rejalashtirish va darslarda innovatsion hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi bilim, ko‘nikmalar o‘rgatiladi. Muzeylarga ekskursiyalarda, tarixiy yodgorliklarni talabalarga o‘rgatishda 3D modellardan, Britaniya muzeyiga virtual ekskursiyalardan foydalaniladi. Ekskursiyalar davomida tarixiy manba, joy va muhit bilan ishlashni rejalashtirish, taqqoslash, interpretatsiya[12] qilish bo‘yicha bo‘limlarga ham e’tibor qaratish mumkin[6].

London universitetiga qarashli pedagogik kollejda ham Britaniyadagi eng yirik tarix o‘qituvchilarini tayyorlovchi dasturlar mavjud. Bilimlarni albatta, raqamli texnologiyalar, elektron dasturlar asosida darslarda hamda mustaqil faoliyatda o‘zlashtiradilar. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari www.britishmuseum.org, www.nationalgallery.org.uk, www.vam.ac.uk, www.artsandculture.google.com, www.westminster-abbey.com, www.english-heritage.org.uk kabi saytlarda ishlash va virtual muzeylarga qilingan ekskursiyalar orqali orttirilgan tajribalar asosida ega

[12] **Interpretatsiya** – bu biror hodisa, matn, tasvir, tarixiy manba yoki ma’lumotning **mazmunini tushuntirish, sharhlash va ma’nosini izohlash jarayoni** degani.

imrconf.com

bo‘ladilar. Ushbu ta’lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar ikki marotaba maktabda, muzeylarda esa 21 kunlik tajriba amaliyotini o‘taydilar. Qolgan amaliyotlar asosan virtual muzeylarda va yodgorliklarda virtual tur hamda ekskursiyalar shaklida kolleksiyalar, maketlar, 3D nusxalarni o‘rganish, tahlil qilish orqali amalga oshiriladi[7].

Britaniyada tarix o‘qituvchilari tayyorlanadigan kurslarda raqamli texnologiyalar 4 ta asosiy yo‘nalishda qo‘llanadi:

Birinchisida, onlayn kolleksiyalar, yuqori aniqlikdagi tasvirlar, 3D modellar, raqamli talqin orqali amalga oshiriladi[8].

Ikkinchisida, ichida interaktiv navigatsiyalari mavjud bo‘lgan qal’a va abbatliklar bo‘yicha virtual va raqamli sayohatlar hamda saytga asoslangan o‘qitish jarayonida qo‘llanadi[9].

Uchinchisida, Angliya tarixiga oid ochiq GIS ma’lumotlari va StoryMaps orqali tarixiy muhitni xarita va makon bilan bog‘liq tahlil hamda narrativlardan[13] foydalaniladi[10].

To‘rtinchisida, raqamli arxivlar va dars uchun onlayn manbaga asoslangan topshiriqlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri darslarga joriy etishda ishlatiladi[8].

Italiyada ham tarix fani bo‘yicha pedagog tayyorlaydigan ko‘plab fakultet va institutlar mavjud. Tarix o‘qituvchilari odatda magistratura yoki shunga yaqin yo‘nalishni tugatib, so‘ng “Percorsi abilitanti”[14] deb nomlangan o‘qituvchilik malakasini beruvchi yo‘nalishda 60-36-30 kredit tizimi orqali o‘rta maktab uchun diplom oladilar. Bu yo‘nalishlar MUR[15] tomonidan 2023–2025 yillardagi me’yoriy hujjatlar bilan yangilangan va ko‘plab universitetlarda ishga tushirilgan[11].

[13] **Narrativ** – bu voqea-hodisani ketma-ket, hikoya tarzida bayon qilish usuli
[14] **“Percorsi abilitanti” – o‘qituvchilik huquqini (litsenziyasini) beradigan maxsus tayyorlov dasturi**
[15] **MUR** bu “Ministero dell Universita e della Ricerca” ya’ni Italiyadagi “Universitet va ilmiy tadqiqotlar vazirligi”

imrconf.com

Mazkur yo‘nalishlarning maqsadi o‘qituvchilarning didaktik tayyorgarligi, metodik bilimlari va raqamli pedagogika kompetensiyalarini kuchaytirishdan iborat. Shu sababli, Italiya universitetlarida tarix va madaniy merosni o‘qitishga bag‘ishlangan modullar tobora ko‘proq innovatsion raqamli vositalardan VR, AR, 3D, GIS, raqamli arxivlar bilan boyitilmoqda.

Xususan, Boloniya universiteti talabalar uchun 60-36-30 dasturini taklif etadi, bu esa o‘qituvchilarni tarixiy-madaniy merosni o‘qitish, geografik tafakkur va metodik tahlil ko‘nikmalariga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Ushbu universitetda abilitatsiya yo‘nalishlari ichida A-22 (Tarix, Geografiya) va A-19 (falsafa va tarix) kabi sinf va klasslar mavjud.

Milan davlat universitetidagi “Teaching history” yoki “Didattica della storia”[16] kursi tarixni o‘qitish maqsadlari, metodlari, vositalari chuqur nazariy va amaliy tayyorgarlik beradi. “Didattica della storia” kursi universitetlarda o‘tiladigan metodika, manbalar bilan ishlash, sinf amaliyotidir. “Didattica del patrimonio”[17] kursi esa raqamli davrda tarix o‘qituvchilari nafaqat matn bilan, balki madaniy meros obyektlari bilan ham ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishini nazarda tutadigan modul hisoblanadi. Shu bois ko‘plab universitetlar ushbu modulni talabalar o‘rganishi uchun taklif etadi.

Boloniya universitetidagi “Tarix va madaniy merosni o‘qitish metodikasi” ilmiy markazi tarix va madaniy merosni o‘qitishning zamonaviy metodlarini o‘rganish, tajriba almashish va ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun asosiy markaz sifatida faoliyat yuritadi. Magistraturada “Public and digital history”[18] tarixni raqamli vositalar orqali ommalashtirish, arxivlashtirish, virtual muzeylar, modellashtirish, onlayn hikoyalar yaratish va ta’limga tatbiq etishni o‘rgatadi[12].

[16] **“Teaching history”** (inglizcha) yoki **“Didattica della Storia”** (italyancha) so‘zlar bo‘lib, bir xil ma’noni anglatadi. Tarjimasi “Tarix o‘qitish metodikasi” deb izohlanadi.
[17] **Didattica del patrimonio** – italyancha atama bo‘lib, o‘zbek tilida **“Meros pedagogikasi”** yoki **“Madaniy merosni o‘qitish metodikasi”** deb tarjima qilinadi.
[18] **“Public va digital history” - bu raqamli texnologiyalar orqali jamiyatni o‘rganish tarixi**

imrconf.com

Rivojlangan davlatlar oliy ta’limi tizimini tahlil qilib shuni xulosalash mumkinki, tarixiy yodgorliklarni mediatexnologiyalar asosida o‘rganish bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, Yevropa universitetlarida VR hamda virtual muzey texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Talabalar real eksponatlarga masofadan turib kirish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu ayniqsa pandemiyadan keyingi davrda ta’limning uzluksizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Virtual muzeylar tarixiy obyektlarni yuqori aniqlikdagi tasvirlar va 3D modellar orqali tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, AQSH, Buyuk Britaniya va Italiya universitetlarida GIS va StoryMaps texnologiyalari yordamida tarixiy jarayonlarni fazoviy tahlil qilish amaliyoti keng tarqalgan. Masalan, tarixiy imperiyalar kengayishi yoki kolonial jarayonlar interaktiv xaritalar asosida o‘rganiladi. Bu usul talabalarda makon va vaqt o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish ko‘nikmasini rivojlantirmoqda.

Uchinchidan, Sketchfab kabi platformalar orqali tarixiy me’moriy yodgorliklarning 3D rekonstruksiyasi amalga oshirilmoqda. Talabalar obyektni turli rakurslardan ko‘rib, konstruktiv xususiyatlarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Bu esa an’anaviy fotosuratlar bilan cheklanib qolgan ta’lim jarayoniga nisbatan ancha samarali hisoblanadi.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan muzey va oliy ta’lim muassasalari hamkorligi asosida tashkil etilgan kurslar talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini oshirishga xizmat qilayotgani qayd etiladi. Tajriba asosidagi o‘rganish, guruhiy loyiha ishlari hamda manba tahliliga asoslangan topshiriqlar orqali tarixiy tafakkur chuqurlashadi.

Rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tarixiy yodgorliklarni mediatexnologiyalar yordamida o‘rganish tarix fanini o‘qitishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli platformalar tarixiy obyektlarni vizual, interaktiv va tadqiqotga yo‘naltirilgan shaklda

imrconf.com

taqdim etib, talabalarning mustaqil fikrlashi hamda tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mediatexnologiyalar tarix ta’limini an’anaviy bilim uzatish modelidan tajriba va tadqiqotga asoslangan zamonaviy modelga olib o‘tmoqda. Shu sababli, xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish tarix fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yusupov M. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2021
2. Dronova N.A. Razvitie issledovatelskoy aktivnosti shkolnikov sredstvami virtualnogo muzeya. Diss., 2024.
3. Qoriyev A. Mediatexnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari hamda tarix darslarida qo‘llanilishi. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali, 2025-yil 4-son.
4. https://www.tc.columbia.edu/arts-and-humanities/art-and-art-education/concentrations/museum-education/
5. https://chnm.gmu.edu/digitalhistory/
6. https://www.educ.cam.ac.uk/courses/pgce/secondary/history
7. https://www.ucl.ac.uk/prospective-students/graduate/teacher-training-programmes/history-pgce
8. https://discovery.ucl.ac.uk/id/eprint/10047967/1/Museum-Object-Lessons-for-the-Digital-Age.pdf
9. https://virtualtours.english-heritage.org.uk/
10. https://historicengland.org.uk/listing/the-list/data-downloads/
11. https://www.nationalarchives.gov.uk/education/sessions-and-resources/
12. https://centri.unibo.it/teaching-learning/it
13. https://centri.unibo.it/centrobelga/en

imrconf.com